

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Abdualiyev

Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) 101

M.X.Otamirzayeva

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari 108

ILMIY AXBOROT**M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov**

Sintaktik-stilistik figuralar konvergentsiyasi 115

A.A.Mirzayev

Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari 119

J.J.Shodiyev

Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari 125

M.И.Темирова

F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari 130

A.M.Mamajonov

Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari 135

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) 141

J.U.Umaraliyeva

Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi 144

D.S.Ergasheva

O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish 148

D.X.G'aniyeva

"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari 153

X.X.Abduraxmonov

Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish 157

G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) 161

O.Q.Abdullayev

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari 164

J.Sh.Nazarov

Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati 168

Sh.F.Latipov

Madaniy kontekstda lakunaga yondosh hodisalar 173

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi 175

Sh.M.Robilova

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati 179

M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova

Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar 183

R.R.Abdusattorov

Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari 186

H.Arabboyev

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi 192

F.Xalikov

Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari 197

M.I.Yusupova

Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi 204

SIDDIQ MO'MIN IJODIDA MEHR KONSEPTINING IFODALANISHI

ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЛЮБВИ В ТВОРЧЕСТВЕ СИДДИКА МОМИНА

EXPRESSION OF THE CONCEPT OF LOVE IN THE CREATION OF SIDDIQ MOMIN

¹Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna¹Farg'ona davlat universiteti, dotsent²Usmonova Ziyodaxon Iloxomjonovna²Oltiariq pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi**Annotatsiya**

Konseptosfera tilshunoslikda o'rganilishi muhim bo'lgan masala bo'lib, badiiy matn tahlili yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarda konseptual tahlilga e'tibor tabora ortib bormoqda. Ushbu maqola olim va shoir Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishiga bag'ishlanib, unda shoirning "Biomaydon" to'plamiga kiritilgan she'rlardan foydalanilgan. To'planning yigirma bir o'rnida qo'llangan mehr konsepti izohlangan.

Аннотация

Концептосфера является важным вопросом, подлежащим изучению в лингвистике, и внимание к концептуальному анализу возрастает в исследованиях, проводимых по анализу художественных текстов. Данная статья посвящена выражению концепции любви в творчестве учёного и поэта Сиддика Момина с использованием стихотворений, вошедших в сборник поэта «Биомайдон». Объясняется понятие любви, использованное в двадцати одном месте сборника.

Abstract

The conceptual sphere is an important issue to be studied in linguistics, and attention to conceptual analysis is increasing in research conducted on the analysis of literary texts. This article is devoted to the expression of the concept of love in the work of the scientist and poet Siddique Momin using poems included in the poet's collection "Biomaidon". The concept of love used in twenty-one places in the collection is explained

Kalit so'zlar: konsept, kongnitiv, lingvopoetik, lingvomadaniyat, leksika**Ключевые слова:** концепт, когнитивный, лингвопоэтический, лингвокультура, лексика**Key words:** concept, cognitive, linguapoetic, linguoculture, vocabulary**KIRISH**

Kognitiv tilshunoslikning paydo bo'lishi nafaqat tilshunoslik tarixi, balki kengroq nuqtai nazardan, kognitiv tadqiqotlarning rivojlanishi va kognitiv fan deb ataladigan sohaning paydo bo'lishi bilan ham belgilanadi. Kognitiv tilshunoslikning bugungi kundagi aktual yo'nalishlaridan biri semantik-kognitiv talqin bo'lib, bu yo'nalish tilning leksik va grammatik semantikasini tushunchalar mazmuniga kirish vositasi sifatida, ularni til semantikasidan olamning lisoniy manzarasida modellashtirish jarayonini o'rganadi. Shu bois badiiy asar tili yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda, albatta, konsept masalasi alohida o'rin egallaydi. Har bir ijodkorning o'ziga xos voqelikni obrazli idrok etishi va uni lisoniy vositalar orqali ifodalash salohiyati mavjud bo'lib, ijodkor nomini mashhur qilgan, o'quvchi ongida yaxlit shoir siymosini shakllantirgan omil, aslida uning ijodidagi aktual konseptlardir. Iste'dodli shoir Siddiq Mo'min ijodining ham o'z aktual konseptlari mavjud. Shoir ijodidagi faol konseptlardan biri mehr – hissiy konsepti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'kidlash joizki, konsept atamasini birinchi bo'lib rus tilshunos olimi Askoldov o'zining "Концепт и слово" maqolasida qo'llagan bo'lib, "bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini aks ettiradigan birlikdir" deya ta'rif beradi. "Konsept" – lotincha "conceptus" tushuncha ma'nosini ifodaladi. Zamonaviy tilshunoslikda esa konsept tushunchasi ma'lum bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo'llaniladi. Konseptga taniqli rus tilshunosi V.A.Maslova quyidagicha ta'rif bergan: "bu lingvomadaniy o'ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalari u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir." Tilshunos olim N.Mahmudov o'zining "Til tizimi tadqiqi" nomli risolasining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." mavzusidagi maqolasida "...konsept tafakkurga oid, mazmuniy mental tushuncha, lekin uni milliy-madaniy unsurdan tamoman holi bo'lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir" deb yozadi. Madomiki, konsept tushunchasini til va madaniyatning yaxlit va uzviyiligini ifodalovchi soha

– lingvomadaniyatning asosiy kategoriyasi sifatida talqin etar ekanmiz, lingvopoetik tadqiqotlarda ijodkor konseptlarini uning madaniy va ma'naviy qarashlari sifatida semantik qatlamga yangicha yondashuv sifatida e'tirof etish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“O‘zbekiston tilshunos olimlari ichida Farg‘onalik professor Sidiqjon aka Mo‘minov haqida “Olimlarning shoirimi yoki shoirlarning olimimi?” degan matal yuradi, chunki Sidiqjon aka olimlik va shoirlikni teng olib bormoqda va shoirlar ichida talantli shoir, olimlar ichida zukko olim.” Ushbu chiroyli tarif tilshunos olim Usmonjon Rahimov tomonidan berilgan bo‘lib, ayni haqiqatdir. Taniqli shoir va olim Siddiq Mo‘min so‘zga ezgu va pok niyatlarni ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan verbal vosita sifatida ehtirom ko‘rsatadi. Shoir insonni yaxshilikka undash mahoratiga ega bo‘lgan, ilm va ijodda iste’dodli, adabiy maydonda o‘z o‘rniga ega, she‘riyatni ilmga, ilmni she‘riyatga mujassamlashtirgan ijodkordir. Siddiq Mo‘min she‘rlarining rang-barangligi, tilining sodda va ravonligi, mavzularda xalq hayotining aks etishi, asosiysi, samimiyligi o‘quvchi e’tiborini ohangrabodek o‘ziga tortadi.

Chehralari – tanish, qadrdon,
Doim birga o‘tganday damlar
Yoqib qolar ko‘rganingiz on –
Chehralari tanish odamlar.

Shoir satrlarida hayot qaynaydi: ota nasihat qiladi, ona mehr ko‘rsatadi, aka ukasiga yelkadosh, ayol o‘z yoriga maslakdosh, sadoqatli, insonlar bir-biriga qadrdon. Xalqimizda «Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo» degan chiroyli ibora bor. Siddiq Mo‘min she‘rlari o‘quvchiga hayotni sevish, insonni qadrlash, tiriklikning qadriga yetish hikmatini o‘rgata oladi.

Dunyo deganlari jumboq azaldan –
Inson javob izlab, to‘rt tomon chopar.
Kimdir orom olar she‘rdan, g‘azaldan –
Har kim halovatni har nedan topar.

Siddiq Mo‘min she‘larida inson qadr topdi, sha‘ni osmon qadar yuksaladi. Mehrning, oqibatning asl mohiyati yoritib beriladi.

Keldingizmi, qanday soz!
Sizni sog‘inganman rost.
Mehrim gulladi qiyg‘os,
Men sog‘ingan odamlar!..

Aslida **mehr** so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi.

Mehr I (fors. –sevgi, muhabbat, moyillik) 1. Insonning o‘z tug‘ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga bo‘lgan samimiy muhabbati; yaxshi ko‘rish tuyg‘usi. *Onalik mehri. Mehrini qozonmoq. Vatanga bo‘lgan mehr va muhabbat. Mehr bilan o‘qimoq. – To‘satdan vujudini qamragan onalik mehri g‘olib kelib, tortgan azobi ham esidan chiqdi.* P.Tursun. O‘qituvchi. *Ikki yor sevgisi ham mehri shunda. Shoirning ilhomi she‘ri ham shunda.* M. Alaviya. *Yoshlar o‘rtasida dehqonchilik kasbiga mehr uyg‘otishga e‘tiborni kuchaytirish kerak.* Gazetadan. *Bu o‘rik bir vaqtlar Murotalining otasi tomonidan ekilgan va mehr bilan parvarish qilingan edi.* Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli.

2. Shafqat, rahmdillik. *Odamning yuragida mehr bo‘lish kerak. Kerakli vaqtda ko‘maklashish kerak.* Oybek. Tanlangan asarlar.

Mehr II (f – eroniy quyosh yilining yettinchi oyi; quyosh) Quyosh, oftob. Jahonning mehri ikkidur: biri sensan, biri – oftob. E.Vohidov, Muhabbat.

Mehrni Siddiq Mo‘min ijodida alohida konseptasfera sifatida yoritish mumkin. Konseptning yadrosi mehrning bosh ma‘nosi, periferiyalari esa shoir ijodida voqealanadi.

Biz buni shoirning “Menga mehr tutayotganlar” she‘ri misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Mehr – dilda ochilgan g‘uncha,
Ko‘pdir uni kutayotganlar.
Mehribonsiz, saxiysiz buncha,
Menga mehrin tutayotganlar?

Mehr-dilda ochilgan g‘uncha, Ko‘pdir uni kutayotganlar. Ushbu matnda mehr bebaho tuyg‘u ekanligi ta’kidlanadi, ya’ni, shunday bebahoki, shoir nazdida u ochilgan g‘unchaga qiyoslanadi.

Demak, birinchi to'rtlikda mehr qalbda tug'ilgan, ochilgan tuyg'u, u hammaga kerak, olamni, borliqni sevish, unga mehr ulashish kerak. Ikkinchi to'rtlikda esa *Bilmam menga siz kim bo'lasiz, Og'ir kunda qo'shnim bo'lasiz, Tug'ishganim – inim bo'lasiz...* u tug'ishganmi, qo'shni yoki, qarindoshmi, kim bo'lishidan qat'iy nazar qadrli shaxs ma'nosini ifodalamoqda. Uchinchi to'rtlikda *Ba'zan g'amdand egilsa boshim, Yelkangizga to'kilar yoshim. Siz og'amsiz, opam, sirdoshim,* ya'ni shunchaki qondosh emas, ko'ngildosh, dardkash ma'nosida kelsa, keyingi to'rtlikda *Onam bo'lib boshim silaysiz, Otam bo'lib oq yo'l tilaysiz*) mehr bu – ota-ona ekanligi ta'kidlanadi. Beshinchi to'rtlikda esa mehrning qanday shakl ifodalanishi, uni qanday anglash mumkinligi ayon bo'ladi: *Gul tutasiz – bir ta'masi yo'q, Choy tutasiz – bir shamasi yo'q, So'z aytasiz – bir chamasi yo'q*, deb satrlar o'zbekona lutf, iltifot, samimiy munosabatga yo'g'rilgan bo'lsa, keyingi o'rinlarda mehr qachon kutilishi hayotiy haqiqatda tasvirlanadi: *Yaxshi kunda yodga kelmaysiz, Yig'lab arz-u dodga kelmaysiz...* Aslida mehr – bu tashvish yukini birovga ortmaslik ekanligi tag ma'noda ifodalanadi, oxirgi to'rtlikda esa *Bugun tongda sizni kutdim men, Bor mehrimni so'z-la to'kdim men, Shu she'rimni sizga tutdim men, Menga mehrin tutayotganlar!* Demak, shoirning mehri bu – ijod, ya'ni qalbdan to'kilgan olmos satrlari ekanligi bilan she'r xulosalanadi.

Shoir ijodida bunday jummalarni ko'plab uchratish mumkin.

Izlab o'zim, boraymi,

Tilab to'zim, boraymi,

Mehrim tushgani aybmi? Mazkur satrda *mehrim tushgani* ibora hisoblanadi.

Men sog'ingan odamlar?!

Keldingizmi, qanday soz!

Sizni sog'inganim rost.

Mehrim gulladi qiyg'os,

Men sog'ingan odamlar!.

Yovuzlikdan qochib keladi,

Sizga quchoq ochib keladi,

Bor **mehrini sochib** keladi –

Istarasi issiq odamlar.

Mehr so'zini iborada (mehrim tushgani) qo'llash orqali shoir bu tuyg'uning mohiyatini yanada bo'rttirib ko'rsatsa, uni undividual metafora *mehrim gulladi, mehrini sochib* bilan ifodalab, she'riy satrlarda bir xillikdan qochish bilan birga aytmoqchi bo'lgan fikrni kuchaytirib, mazmun ta'sirchanligiga erishgan. Ijodkorning "Tillashish va dillashish" deb nomlangan risolasidagi quyidagi fikrlari e'tiborimizni tortdi: "Qush tilini qush biladi" deganlaridek, har bir xalq tilini, uning hol-ahvoli, sir-asrori, ichki kechinmalari, niyat-maqсадlari, nuqson-kamchiliklarini, xullas, jamiki o'ziga xos xususiyatlarini o'sha xalqqa yaqin bo'lgan kishilar yaxshi biladi. Buning uchun esa, eng avvalo xalq tilini yaxshi bilish kerak." Zero, Siddiq Mo'min xalq uchun xalq tilida yozadi, xalq tili esa qalbning tilidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shoir ijodidagi mehr konsepti ezgulik konseptosferasining tarkibi sifatida baholanadi. Mehr hissiy konsepti muayyan darajada moddiylashadi. Bu esa har bir kitobxonda so'z zavqini uyg'otadi va o'zbek tili lug'atiga mansub so'zlardan o'rinli foydalanishga, yangi tuyg'ularni kashf etishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Маслова В.А. Лингвокультурология.—М.: "Академия", 2001.—с.208
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent
3. Siddiq Mo'min. Biomaydon. "Farg'ona" nashriyoti – 2022.
4. Siddiq Mo'min. Mendan mehr kutayotganlar. "Farg'ona" nashriyoti – 2007.
5. Rahimov U. Tilshunoslikda o'z nomiga ega bo'lgan olim. "Ona tili mash'alini baland ko'targan zot" "BOOKMANY PRINT", Toshkent-2023. 113-B
6. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab// O'zbek tili va adabiyoti T.:2012, 3-16-B
7. Yuldasheva D.M. Pedagogical Features Of Mental Development Of Presschool Shildren. Solid State Teshnology.Volume: 63 Issue:6 Publisation Year:2020. 14221-14225
8. Yuldasheva D.M.Anthropotsentris Approash To Shildren`S Speesh Study. Sestion 2: Linguistiss Theory,Applied Linguistiss. Sollestion Of Materials Of The International Online Sonferense.Www.Researsh-Support-Senter.Som 2020.92-95

9. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speesh Development Of Presshool Shildren. Epra Internashinal Jurnal Of Multidissiplinary Researsh(ljmr). Impast Fastor: 7.6.11.November.
10. Д. М Юлдашева. Синтактик такрорларнинг бадий-эстетик имкониятлари. Международный журнал/ Искусство слова.
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv_tilshunoslik